



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to'plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo'mitasi

Tashkiliy qo'mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo'mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo'mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og'li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o'qituvchisi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

Sh. Jabbarov – O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg'iziston Respublikasi O'sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo'jalik fanlar doktori, professor. (Qirg'iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog'iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog'iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo'jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog'iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i, qishloq xo'jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo'jalik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg'anybayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug'i bilan oliy ta'lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o'tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o'qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan

To'plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to'g'riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

GO'SHT YO'NALISHIDAGI LIMUZIN ZOTIGA MANSUB BUZOQLARNING O'SISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI

Dosmuxumedova M¹., Kojambergenova K.K².

¹Toshkent davlat agrar universiteti.,

²Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Kirish. Respublikamizda oziq-ovqat dasturining eng muhim vazifasi chorvachilik mahsulotlari, ayniqsa qoramol mol go'shti ishlab chiqarishni barqaror ko'paytirishdir. Bugungi kunda chetdan keltirilgan go'sht yo'nalishidagi qoramollarning yangi hududga iqlimlashishini ta'minlash orqali ularning genofondidan samarali foydalanishga sezilarli darajada bog'liqdir. Shu bois, go'sht ishlab chiqarishda yuqori mahsuldorli moslashuvchanlik qobiliyatini tadqiqot qilish amaliyotning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu mulohalardan kelib chiqqan holda, go'sht mahsuldorligi yo'nalishidagi hayvonlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarning biri chetdan keltirilgan qoramollarning iqlimlashishini, qoramollarning tana tuzilishini va tirik vaznini oshirish orqali go'sht mahsuldorligining shakllanishining jadal usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Shu munosabat bilan hayvonlar sog'lig'i, chidamliligi va ko'payish qobiliyatini saqlab qolgan holda yuqori o'sish jadalligi va ozuqani qoplash, yuqori go'sht chiqimi va sifatiga ega bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik hududining kengayishi genetik xilma-xillikni talab etadi. Bu esa, muayyan sharoitlarda an'anaviy va intensiv texnologiyalarga yaxshi moslashuvchan, yuqori mahsuldor go'sht yo'nalishidagi zotdor podalarni yaratishning haqiqiy zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston respublikasi aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda go'sht yo'nalishidagi qoramollar o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Sababi progressiv o'sib borayotgan xalqni go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash bugungi kunning asosiy vazifalari hisoblanadi. Oziq-ovqat muammosini echishga qaratilgan ishlardan asosiylari go'sht yo'nalishidagi naslli qoramollarni chetdan olib kelish va ma'lum darajada go'sht va go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qoplashdan iborat.

Tahlillar. Ko'p sonli tadqiqotchilar izlanishlarida chetdan olib kelingan go'sht yo'nalishidagi qoramollar uning seleksiya natijalariga bog'liqligini ta'kidlaydilar.

Olimlar ta'kidlashicha zotlararo chatishtirishda Limuzin zotining alohida o'rin tutishi va ushbu zotni yaxshilovchi zot sifatida foydalanish muhimligini ta'kidlaydi. Muallif fikricha, ushbu zotning duragaylari go'shtning miqdori va sifati, ayniqsa tez etiluvchanligi bo'yicha ajralib turadi. Muallifning ta'kidlashicha, tana go'shti to'liqligi bo'yicha yuqori bo'lib, undagi suyak miqdori 14-15 foiz atrofida bo'ladi.

Mesheryakov.V.S (1998) Limuzin zotli buqalarni simmental zotga mansub qoramollar bilan juftlanganda ulardan olingan g'unajinlari tirik vazni 439,6 kg, ikkinchi avlodda esa 429,9 kg bo'lishi mumkin va bu ko'rsatkich bo'yicha ular naslli tengdoshlaridan 24,8 (6,0%, $p < 0,001$) va mos ravishda 15,1% (30,1 kg) ga oshadi. Buqachalar 12 oydan 15 oygacha bo'lgan davrda eng intensiv o'sish sur'atiga ega - 982,2-1002,2 g, naslli tengdoshlaridan 187,7-207,8 g ga oshadi (23,6-26,2%, $p < 0,001$).

Demak muallif fikrlaridan ko'rinib turibdiki, limuzin zotga mansub buqalar ma'lum darajada yaxshilovchi zot hisoblanadi.

Bunday analogik tadqiqotlar tomonidan olib borilib, Limuzin zotiga mansub buqalarni yaroslavl zoti mansub sigirlar bilan juftlashda go'shtdorligi oshishini ta'kidlaydi va quyidagicha xulosa qiladi. Go'sht etishtirish miqdorini oshirish maqsadida yaroslavl va qora-ola sigirlar bilan limuzin zotli buqalarni juftlash zarurligi keltiriladi.

Fransiya davlatidan keltirilgan limuzin zotlarini Sharole, Salers va Obrak zotlari sigirlari bilan juftlanganda shunday xulosaga keladi. O'n yildan ortiq ko'payish davri uchun Fransiya davlatidan keltirilgan go'sht yo'nalishidagi qoramollarni buqachalarning tirk vazni 217 kg gacha va g'unajinlar esa, 208 kg-ni tashkil qilgan. Bunda olingan avlodlar zot sifati bo'yicha 90% dan ortig'i to'liq mos kelgan va 10-12% oralig'ida qayta tiklanishning kamayishi sodir bo'lganligini ta'kidlaydi.

Shuni qattiqan ta'kidlash mumkinki, chetdan keltirilgan naslli hayvonlarning ekster'er ko'rsatkichlar yashash muhiti doirasida ma'lum darajada o'zgarish kuzatiladi. Bunday holat tashqi muhit omillari va oziqlantirish darajasi bilan bevosita bog'liqligini ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan isbotlangan.

Smirnov o'z taddqiqotlarida tajriba guruhidagi buqachalarning asosiy tana o'lchamlarini o'rganib, shunday xulosaga keladiki, tana tuzilishini ifodalaydigan o'lchamlar farqi hayvonlarni yoshligidan boshlanib, ularning sut va go'sht mahsuldorligi bilan bevosita bog'liqlikda bo'lgan. Jumladan yag'rin balandligi bo'yicha 6 oylik II-guruhdagi buqachalar o'z tengqurlari I va III guruhlardagi buqachalarga nisbatan: 0,9 sm ($P>0,05$) yoki 1,0 foiz va 0,8 sm ($P>0,05$) yoki 0,9 foiz ustun bo'lib, jadal o'sish va rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan. Shuning uchun ularda muskul to'qimalarining rivojlanishi kuchli bo'lgan va yuqori darajadagi go'sht mahsuldorligiga erishish imkoniyati yaratilgan.

Bunday analogik xulosalarni Turli genotipdagi buqachalar tirik vaznining oziqlantirish omiliga bog'liqligini tadqiqot qilgan holda, sut-go'sht yo'nalishidagi (simmental va monbelyard) sigirlarni go'sht yo'nalishidagi jahon genofondiga xos naslli buqalar urug'i bilan sanoat asosida chatishtirishdan olingan birinchi bo'g'in (F1) duragay avlodlarining irsiy imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishi va ular tirik vaznining yuqori bo'lishi hamda go'sht mahsuldorligi shakllanishi bevosita to'la qiymatli va muvozanatlashtirilgan ozuqalar bilan oziqlantirishga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar.

o'z tajribalarida Angus zotli naslli buqalarning nasldorlik indeksleri va ekster'er ko'rsatkichlarini tadqiqot qilib, shunday xulosaga keladi. Angus zotli buqalar o'zining yuqori prepotentlik ya'ni, o'z avlodlariga o'zining mahsuldorlik va sifat ko'rsatkichlarini o'tkazib borish xususiyatlariga egaligi, nasldorlik indeks ko'rsatkichlari mavjudligi hamda ekster'er o'lchamlari olinib o'rganilgan natijalari bu zotning nasldorlik indeksleri yuqori ekanligi, qoramollarni tanlash va saralash ishlarida keng va ilmiy ishlarda foydalanish, ekster'er ko'rsatkichlarining zot andozalariga to'g'ri kelishi natijasida kelajakda naslli buzoq olish rejalarini oldindan rejalashtirib, yuqori sifatli go'sht ishlab chiqarishda keng foydalanish mumkinligi ta'kidlaydi.

Tajribadagi buqachalarda go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ustida tajriba ishlarini olib borgan holda, o'z tadqiqotlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasini tez o'zgaruvchan, yoz faslida issiq, qish faslida qahraton sovuq bo'ladigan tabiiy iqlim va o'ziga xos bo'lgan ekologik sharoitda qoramol go'shti etishtirishni samaradorligini oshirishda, buqachalar uchun oziqlantirish ratsionini tuzish, ularning quruq moddalarga bo'lgan ehtiyojini va ozuqa bilan hayvon organizmiga almashinuvchi quvvat beruvchi uglevodlar, yog'lar va proteinlarga ham e'tibor berish, buqachalarni go'sht olish uchun parvarishlash va bo'rdoqilash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar.

Qurbonova tajriba xulosalariga ko'ra, postnatal ontogenezda turli genotipli Limuzin buqalarining o'sish va rivojlanish xususiyatlarini tadqiqot qilib, 3 ta tajriba guruhi tuzilgan va tajriba natijalariga ko'ra, 1-guruh - fransuz seleksiyasi (Limuzin) va mahalliy naslli sigirlardan ($n = 12$) olingan buqalar, 2-guruh - avstraliyalik seleksiya sigirlari va mahalliy nasldor sigirlardan olingan buqalar ($n=12$) hamda 3-guruh – mahalliy nasldor sigirlarning juftlashuvidan olingan buqalar va mahalliy nasldor zotlari ($n = 12$) tashkil qilib, olingan ma'lumotlar natijasida, 1-guruh buqalari (fransuz seleksiyasining urg'ocha hayvonlari) tirik vazn ko'rsatkichlari bo'yicha 2-guruh va 3-guruh buqalaridan ($p < 0,05$ da) ustunlik qilgan va mutlaq va o'rtacha kunlik daromadlar bo'yicha sezilarli farqlar aniqlangan.

Bunday analogik tadqiqot Rossiya federatsiyasida ham olib borilib, tomonidan tajribalar xulosasiga ko'ra, fransuz zotli go'shtli buqalar (I Limuzin, II Aubrak, III Salers, IV Sharole) va mahalliy Simmental buqalarning o'sishi, tirik vazni, go'sht mahsuldorligi, go'sht sifati va iqtisodiy samaradorligini qiyosiy baholash natijasiga ko'ra, Rossiya sharoitda yuqori sifatli mol go'shti etishtirish uchun, birinchi navbatda, fransuz zotli go'shtli buqalardan foydalangan holda go'shtli chorvachilik sanoatini rivojlantirishni tavsiya etadi va shunday xulosaga keladiki, Simmental zotli buqalarni etishtirish maqsadga muvofiq emasligi ta'kidlaydilar.

Bunday analogik fikrni Rossiyaning shimoliy viloyatlarida olib borgan tajribalarida ham isbotlangan. Mualliflar xulosasiga ko'ra, Limuzin zotli sigirlarning yuqori reproduktiv qobiliyatga ega ekanligi, elita va elita-rekord sinflariga mos kelishini hamda Rossiyaning tabiiy-iqlim sharoitida, o'ziga xos iqtisodiy foydali sifatlarini yani o'sish va rivojlanish, fiziologik ko'rsatkichlarini saqlab qolganligidan dalolat berishini ta'kidlagan.

Xorijiy tadqiqotchilar ham shunday fikrni qo'llagan holda, Finlyandiya davlatida olib borilgan tajriba natijalarida, Limuzin buqalari Aberdin Angus buqalariga nisbatan yuqori konformatsiya baliga erishgan va tana qismida kamroq yog' to'plash xususiyatni namoyon qilgan holda, tana go'shtlari foizi yuqori bo'lgan. Chatishtirilgan Aberdin Angus × Limuzin buqalari sof Aberdin Angus buqalariga nisbatan yaxshiroq konformatsiyalangan tana go'shtlari ulushini yuqori qildi, bu esa o'rganilayotgan sharoitlarda bu turdagi chatishtirish mol go'shti ishlab chiqarishni oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.

O'sib-rivojlanish ko'p sonli tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra, zot va uning duragaylariga bog'lik bo'lib, shu bilan birga go'sht sifatini ham belgilaydi. Zotning go'sht sifatiga bog'liqligini Golland olimlari olib borgan tajribalarida isbotlanadiki, o'z tadqiqotlarida, Piemonte va limuzin zotli buqa va g'unajinlarning tana go'shti, go'shti va ovqatlanish sifatiga ona zoti va parvarish tizimining ta'sirini limuzin avlodlari Piemonte nasllariga qaraganda yuqori semizlikda bo'lganligi va go'sht sifati, tana vazni, konformatsion ko'rsatkichi, semizlik ko'rsatkichi, go'sht pH ko'rsatkichlari, go'sht rangi, va shiralilik, xushbo'ylik xususiyatlari ustunligini ta'kidlaydilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, go'sht yo'nalishidagi qoramollarning o'sishi va rivojlanishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatib, ulardan asosiysilari zotdorligi, tashqim muhit omillari, fiziologik holati, oziqlantirish texnologiyasi va me'yorlari, zotlar aro chatishtirishda geterozislik darajasi shular qatoriga kiradi. Bunday holatlarni go'sht ishlab chiqarishda hisobga olinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Смирнов Д.А., Гусельникова А.А., Васильев А. В. Методы создания высокопродуктивных мясных стад // Зоотехния. 1988.-№ 2.-С. 20-23.
2. Пенков. Д.В. Продуктивные и некоторые биологические особенности лимузинского скота в разных зонах Ставрополя. Автореферата на соис. канд с-х наук. Ставрополь. 2006. 19 стр.
3. Наўризов Т.А., Алламбергенов К.М Тажрибадаги букачаларда гўшт ишлаб чиқариш кўрсаткичлари // Chorvachilik va naslchilik ishi ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2020. – №6 (17). – В. 15-17.
4. Курбонова Ш.Э., Эгамбердиева З.К. Тажриба гуруҳидаги букачаларнинг асосий тана ўлчамлари // “Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш истиқболлари: замонавий амалиёт ва инновацион технологиялар” Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Самарқанд, 2020. – В. 28-30.
5. Мадрахимов Ш.Н., Рўзиев Н.Р. Турли генотипдаги букачалар тирик вазнининг озиqlантириш омилига боғлиқлиги // Chorvachilik va naslchilik ishi ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2023. – №1 (29). – В. 6-9.

6. Маматкулов О., Мамталиев Ш., Ризаев О., “O’z naslchilik” davlat korxonasiдаги Ангус зотли насли буқаларнинг наслдорлик индекслари ва экстерьер кўрсаткичлари // *Chorvachilik va naslchilik ishi ilmiy-amaliy jurnali*. – Toshkent, 2021. – №3 (20). – В. 19-21.
7. Мещеряков.В.С. Продуктивные и биологические особенности лимузин-симментальских помесей при выращивании и откорме. автореферата на соис. уч ст. кандидата сельскохозяйственных наук. 1998. 23 стр.
8. Бахарев А. А., Шевелева. О. М., Эффективность использования французских мясных пород в условиях Северного Зауралья. *Аграрный вестник Урала* № 8 (114), 2013 г. 23-25 с.
9. Субханкулов Н.Р., Седых Т.А., Губайдуллин А.С., Юмагузин И.Ф., Гизатуллин Р.С. Рост и развитие бычков лимузинской породы различных генотипов в постнатальном онтогенезе // *Вестник КрасГАУ*. – Красноярск, 2024. – № 1. – С. 125-132.
10. Заднепрятский И.П., Привало О.Е., Самбуров Н.В., Привало К.И. Особенности роста и мясной продуктивности бычков французской селекции в зоне центрального черноземья России // *Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии*. – Россия, Курск, 2019. – № 1. – С. 65-73.
11. Бахарев А.А., Шевелёва О.М. Продуктивные способности французских мясных пород скота в условиях северного зауралья // *Сборник статей всероссийской научно-практической конференции Современные научно-практические решения в АПК*. – Россия, Тюмень, 2017. – № 1. – С. 17-28.
12. Pesonen M., Honkavaara M., Huuskonen A.K. Effect of breed on production, carcass traits and meat quality of Aberdeen Angus, Limousin and Aberdeen Angus×Limousin bulls offered a grass silage-grain-based diet // *Agricultural and Food Science*. – Finland, 2012. Vol. 21, №. 4. – P. 361-369.
13. Hoving-Bolink A.H., Hanekamp W.J.A., Walstra P. Effects of sire breed and husbandry system on carcass, meat and eating quality of Piemontese and Limousin crossbred bulls and heifers // *Livestock production science*. – Germany, 1999. Vol. 57, №. 3. – P. 273-278.
14. Vlasova I., Vostroilov A., Safonov V. Evaluation of meat productivity of Limousin breed cattle in biogeochemical conditions of Voronezh region // *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*. – Angliya, Bristol, 2022. Vol. 1112, №. 012068. – P. 1-7.
15. Бобокулов, Н., Хатамов, А., Абдузоирова, Д., Юсупов, А., Уримбетов, А. и Олмасов, Б. (2021). Мясная продуктивность овец в Узбекистане и её связь с различными факторами. В *E3S Web of Conferences* (т. 258, с. 04020). EDP Sciences.
16. Шакарбоев, Э. Б., Азимов, Д. А., Голованов, В. И., Кузнецов, Д. Н., Уримбетов, А. А., & Каниязов, А. Ж. (2017). Гельминты лошадей Узбекистана. *Ветеринария*, (5), 29-32.
17. Уримбетов, А. А., & Бобокулов, Н. А. (2024). Молочность каракульских овец окраски сур каракалпакского породного типа. *Овцы, козы, шерстяное дело*, (1), 24-26.
18. Уримбетов, А. А. (2019). Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. *Экологический Вестник Северного Кавказа*, 15(4), 91-93.
19. Shakarboev, E., Safarova, F., Azimov, D., & Urimbetov, A. (2015). FAUNA, ECOLOGY AND TAXONOMY OF CYPRINIFORMES FISH HELMINTHS IN UZBEKISTAN. *The Journal of Microbiology, Biotechnology and Food Sciences*, 5(1), 88.